

XORIJIY MANBALARDA ASHURALI ZOHIRIY FAOLIYATI YUZASIDAN ILMIY QARASHLAR

Mirzamidinova Shahnoza Abidinovna

Angren universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

sh.mirzamidinova@auni.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14744635>

Annotatsiya: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi tarixiy jarayonlarni kechishida bir guruh taraqqiyparvar shaxslarning o‘rni va roli beqiyos ahamiyatga ega bo‘lganligi shubhasizdir. Shu boisdan ham, bu murakkab davr xususida tadqiqot ishlarini olib borishda alohida shaxslarning hayoti va faoliyatini o‘rganish, ular yashagan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy muhitning o‘ziga xosliklarini sinchiklab tadqiq etish ko‘plab tarixiy jumboqlarni yechishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda Qo‘qon jadidlarining ilg‘or vakillaridan biri Ashurali Zohiriyning (1885-1937) bosib o‘tgan yo‘lini o‘rganish ham bugungi kundagi muhim vazifalardan biridir.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, matbuot, mafkura, qurultoy, maqola, siyosiy mafkura, til, tarix, Turkiston Muxtoriyati.

Annotation: The place and role of progressive individuals in the historical processes of Turkestan at the end of the 19th and the beginning of the 20th century were undoubtedly of exceptional importance. Therefore, the study of the lives and activities of these individuals, along with a detailed examination of the socio-political, economic, and ideological environment in which they lived, provides valuable insights into solving many historical mysteries of this complex period. In this context, one of the most significant tasks today is to research the life and work of Ashurali Zakhiri (1885–1937), a prominent representative of the Jadid movement in Central Asia.

Key words: Jadidism, press, ideology, convention, article, political ideology, language, history, Turkestan Autonomy.

XX asr boshlaridagi ulkan madaniy ko‘tarilish Turkiston zaminidan ko‘plab milliy ziyolilar qatlamini shakllantirib berdi. Madaniy ko‘tarilish esa o‘z-o‘zidan vujudga kelib qolmasdan, balki dastlab Chor imperiyasining, so‘ngra bolsheviklar hukumatining Turkiston xalqiga nisbatan ko‘rsatgan cheksiz milliy zulmi, mahalliy ziyolilarning shakllanishiga, o‘zlarining maqsad va maslaklari yo‘lida qat’iy tarzda faoliyat olib borishga undadi.

Bu paytga kelib Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Domla Ikrom, Hoji Muin, Abdulqodir Shakuriy, Abdurauf Fitrat Abdulloh Badriy, Buxoroda Po‘latxo‘ja, Muso Saidjonov, Muxtor Saidjonov, Ota Xo‘jayev, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Eshon Xo‘ja, Hasanxo‘ja qori, Mulla Abdulla, Muhammadjon qori, Muallim Rustambek, aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiy qori, Abdulla Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, G‘ulom Zafariy, Namanganda Zayniddin qori, Dadamirza qori, Diydavoy qori, G‘afur xoji, Abdullajon qori, Qo‘qonda esa Mirshohid Miroqilov, Yunusjon hoji Og‘aliqov, Abdulvahob Ibodiy, Muhammadjon Holiqiy, Obidjon Mahmudov kabi bir qator ziyolilar faol tarzda islohotchilik harakatlarini olib borayotgan edilar.

Qo‘qonda o‘z faoliyatini olib borayotgan Ashurali Zohiriy ham XX asr boshlaridagi Turkiston ziyolilarining eng peshqadamlaridan biri edi.

Xorijda amalga oshirilgan Ashurali Zohiriy hamda XX asr boshlaridagi Turkistonda kechgan jarayonlar to'g'risidagi tadqiqotlarning mualliflari sifatida Mustafo Cho'qay, Ahmad Zaki Validiy, Abdulvahob O'qtoy, Tohir Chig'atoy, Boymirza Hayit, Edvard A.Allvort, Adib Xolid, Shahobiddin Yassaviy, Mustafo Said Arslon kabi olim va tadqiqotchilarni keltirish mumkin¹.

Mustafo Cho'qay shubhasiz o'zining siyosiy faoliyati bilan Turkiston tarixida katta o'rinni egallaydi. U o'zining bir qator asarlarida, "Yosh Turkiston", "Yangi Turkiston" kabi muhojir jadidlar tomonidan xorijda chiqarilgan jurnallarda chop etilgan maqolalarida XX asr boshlaridagi Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy jarayonlar xususida o'zining o'tkir tahlillarini e'lon qilib borgan. Ayniqsa uning "1917-yil xotiralari" nomli risolasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, Ashurali Zohiriy atrofida kechgan voqeiliklarni o'rganishda ushbu kitobning o'rni katta ahamiyatga egadir².

Ashurali Zohiriy bilan bevosita ilmiy hamkorlik qilgan Ahmad Zakiy Validiyning tadqiqotlarida ham uning faoliyati haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud. Masalan, uning 2021-yilda yangidan chop etilgan "Xotiralar" kitobining 92, 129 va 311-betlarida Ashurali Zohiriyga doir xotiralar keltirilgan. Jumladan, kitobning 92-sahifasida Ashurali Zohiriyning qo'qonlik muallim ekanligini yozgan bo'lsa, 129-betda uni Turkistonda orttirgan eng yaqin do'stlaridan biri ekanligini ta'kidlangan³. Garchi, Zaki Validiy 1917-yilda Ashurali Zohiriy bilan birgalikda "Yurt" jurnaliga asos solganligini yozgan bo'lsa-da⁴, aslida ushbu jurnalning birdan bir asoschisi va muharriri Ashurali Zohiriy bo'lib, uning o'zi keyinchalik Zaki Validiyni jurnal sahifalarida maqolalar bilan ishtirok etishga chaqirgan.

Turkiston jadidlarining yirik vakillaridan biri Munavvarqorining "Na'muna" maktabida tahsil olib, keyinchalik 1923-yilda Germaniyada o'qishni davom ettirib, taqdir taqozosi bilan u yerda qolib ketgan Abdulvahob O'qtoy va Tohir Chig'atoylar "Yosh Turkiston" jurnali sahifalarida chop etilgan maqolalarida Ashurali Zohiriy haqida ayrim ma'lumotlarni oynoma o'quvchilari e'tiboriga taqdim etishgan.

"Yosh Turkiston" jurnali 1929-1939-yillar orasida Parijda nashr etilgan bo'lib, uning ilk soni 1929-yilning dekabr oyida chop etilgan. Ushbu jurnalning maqsadi Mustafo Cho'qay tomonidan yozilgan "Bizning yo'l" nomli ilk maqolada aniq va lo'nda shaklda keltirilgan. Turkiston Muxtoriyatining sobiq bosh vaziri bo'lmish Mustafo Cho'qay jurnalning maqsadini ochiqlab: "Yangidan chiqa boshlag'on har bir siyosiy majmua va gazetaning o'quvchilariga o'z siyosiy g'oya, yo'li ham maqsadini tanitib ketish odati bordir. Qonun holiga kirib qolg'on bu

¹ M. Cho'qay. Istiqlo'l jallodlari. – T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy birlashmasi". 1992. – B. 80; Z.V.To'g'on. Bugungi Turkiston va yaqin moziysi. – Qohira.: "Matba'atul-e'timod". 1939. – B. 704; Shu muallif: Hatiralar. – T.: "Turkiye diyanet vakfi yayinlari". 2019. – S. 627; A. O'qtoy. Turk gazetachilig'i // "Yosh Turkiston" jurnali. 1933-yil oktyabr – №. 47; T. Chig'atoy. Turkistondagi milliy adabiyot va adiblar fojiasi // "Yosh Turkiston" jurnali. 1935-yil iyun – №. 65; B.Hayit. Mahmudxo'ja Behbudiy // "Milliy Turkiston" jurnali. 1952-yil – № 76; Shu muallif: Munavvarqori – Turkiston jadidchiligining otasi // "Milliy Turkiston" jurnali. 1952-yil – № 77; Allworth E. The modern uzbeks. From the fourteenth century to the Present. A cultural History. – Stanford:California. 1990. – P. 124; Shu muallif: Jadidlar haqida yashirilhan hikoyalar // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1992-yil 11-sentyabr; Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform. – Oxford.: "University of California Press". 1998. – P. 97, 154, 161, 211; Shu muallif: Adeeb Khalid. Making Uzbekistan. Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – USA.: "Cornell University Press". – P. 264, 374, 378; Sh.Yassaviy. Turkistonning achchiq haqiqatlari. – Istanbul.: 1984. – B. 173; M.S.Arslon. Hokandlı Ceditçi Aşurali Zohiri // Türk Kültürü İncelemeleri Dergisi, 51 (Bahar 2024). – S. 279-296.

² M.Cho'qay. Istiqlo'l jallodlari. – T.: "Tirilish" nashriyoti. – B. 96.

³ Z.V.To'g'on. Hatiralar. – T.: "Turkiye diyanet vakfi yayinlari". 2019. – S. 92,129.

⁴ O'sha manba: – S. 311.

odatga biz ham iyaramiz (ergashamiz). Yo'limizni anglatish uchun uzun izohlarga ehtiyoj yo'q. Yo'limiz va maqsadimiz: "Biz Turkiston istiqlochlilari elimizning erki va yurtimiz Turkistonning qurtulishi uchun kurashamiz" jumlasida xulosa etila biladir. Turkistonliklarga bundan boshqa yo'l yo'q, bo'la olmas va bo'lmasin" deb yozdi⁵.

Abdolvahob O'qtoy "Yosh Turkiston" jurnalining 1933-yilgi 47-sonida chop etilgan "Turk gazetachilig'i" nomli maqolasida Ashurali Zohiriyning XX asr boshlaridagi Qo'qon jadidlarining yetuk vakillaridan biri sifatida e'tirof etib, uning tashabbusi ostida chop etilgan "El bayrog'i" gazetasi va "Yurt" jurnalining turkistonliklarning ong va tafakkurini yuksaltirishdagi o'rnini ijobiy baholagan⁶.

Tohir Chig'atoy esa "Yosh Turkiston" jurnalining 1935-yilgi 65-66-sonlarida turkum holda chop etilgan "Turkistondagi milliy adabiyot va adiblar fojiasi" nomli maqolalarida, ko'plab turkistonlik ziyolilar qatori Ashurali Zohiriyning qatag'on etilishi to'g'risida ham o'z fikrlarini bildirib o'tgan⁷.

Boymirza Hayitning tadqiqotlarida, jumladan XX asrning 50-yillarida Istanbulda nashr etilgan "Milliy Turkiston" jurnalida ham Ashurali Zohiriyga doir mulohazalar berilgan. Masalan, B.Hayit "Milliy Turkiston" jurnalining 1952-yilgi 76-sonida chop etilgan "Mahmudxo'ja Behbudiy" nomli maqolada Ashurali Zohiriy Behbudiyning Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ahmad Vasliy, Bahrombek Haydariy, Hoji Shukrulloh (Muin)lar bilan birga eng yaqin safdoshi bo'lganligini yozgan bo'lsa⁸, xuddi shu jurnalning 77-sonida e'lon qilingan "Munavvarqori – Turkiston jadidchiligining otasi" sarlavhali maqolada Ashurali Zohiriy Ostroumovning shovinistik xatti-harakatlariga qarshi bir guruh turkistonlik ziyolilar bilan birga kurashganligini ta'kidlagan⁹.

Amerikalik tarixchi Edvard A.Allvortning ham bir qator asarlarida XX asr boshlaridagi Turkiston jadidlarining keng miqyosli faoliyati bilan birga Ashurali Zohiriy haqida ayrim ma'lumotlarni taqdim etib o'tgan. Jumladan, u o'zining "Markaziy Osiyo: Rossiya hukmronligi ostida bir asr" nomli asarida Ashurali Zohiriyning jurnalistik faoliyati xususida ma'lumot bergan bo'lsa¹⁰, 1987-yil Germaniyaning Kyoln shahrida bosilgan "Turkiston" majmuasida e'lon qilingan tadqiqotida Ashurali Zohiriyning XX asr boshlarida Turkiston taraqqiyparvarlarining peshqadamlaridan biri hamda boshqa ziyolilar bilan yaqindan hamkorlik qilgan faol shaxs sifatida e'tirof etgan¹¹.

Yana bir amerikalik tarixchi Adib Xolidning tadqiqotlarida ham Ashurali Zohiriy to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, uning "The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia" va "Making of Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR" nomli kitoblarida Ashurali Zohiriy to'g'risidagi fakt va mulohazalar o'rin olgan.

⁵ Alijonov M. Turkiston hurriyati yo'lida. – T.: "Mahalla va oila nashriyoti". 2024. – B. 5.

⁶ A. O'qtoy. Turk gazetachilig'i // "Yosh Turkiston" jurnali. 1933-yil oktyabr – №. 47.

⁷ T. Chig'atoy. Turkistondagi milliy adabiyot va adiblar fojiasi // "Yosh Turkiston" jurnali. 1935-yil iyun – №. 65; T. Chig'atoy. Turkistondagi milliy adabiyot va adiblar fojiasi // "Yosh Turkiston" jurnali. 1935-yil iyul – №. 66.

⁸ B.Hayit. Mahmudxo'ja Behbudiy // "Milliy Turkiston" jurnali. 1952-yil – №. 76.

⁹ B.Hayit. Munavvarqori – Turkiston jadidchiligining otasi // "Milliy Turkiston" jurnali. 1952-yil – №. 77.

¹⁰ Edward A.Allworth Central Asia: A Century of Russian Dominance. – London.: "Duke university press". 1994. – P. 201.

¹¹ Edvard A.Allvortning ushbu maqolasi Malohat Komilova tomonidan ingliz tilidan tarjima qilingan holda davriy matbuotda chop etilgan. Qarang: Jadidlar haqida yashirilgan hikoyalar // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1992-yil 1-sentyabr.

Masalan, “The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia” (Musulmon madaniyatini isloh qilish siyosati: Markaziy Osiyoda jadidchilik) nomli kitobining 97, 154, 161 va 211-betlarida Zohiriy to’g’risida qaydlar mavjud.

Adib Xolid tadqiqotining 97-sahifasida Ashurali Zohiriyning Turkiston taraqqiyparvarlarining ko’zga ko’ringan eng katta vakillaridan biri, “Qo’qon va Buxoro madrasalarida tahsil olgan ziyoli va O’rta Osiyo turkiy tillari imlosi bo’yicha birinchi qo’llanma muallifi sifatida e’tirof etgan bo’lsa¹², kitobning boshqa bir o’rnida Qo’qonda shiddatli tarzda kechayotgan jadid-qadim nizosiga Ashurali Zohiriy ham tortilganligini, masalan u diniy ulamolardan hisoblanmish Fazlulvahobning musiqa to’g’risidagi nazariy qarashlariga qarshi “Al-Isloh” jurnalida maxsus maqola bilan raddiya bildirganligini ta’kidlagan¹³.

Adib Xolidning “Making of Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR” (O’zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob) nomli kitobida ham Ashurali Zohiriyga doir o’rinlar bor.

Masalan, muallif kitobning 264-sahifasida imlo masalasida Ashurali Zohiriy bilan Fitrat o’rtasida o’zaro qarama-qarshilik borligini yozgan bo’lsa¹⁴, boshqa o’rinda uni mohir jurnalist hamda Qo’qon Muxtoriyatining faol ishtirokchisi sifatida talqin etgan¹⁵.

Yuqoridagilardan tashqari O’zbekiston Milliy arxividagi 19-I, 276-I va 1760-fondlarda ham Ashurali Zohiriyga oid ayrim hujjat va qaydlar saqlanmoqda.

Xulosa o’rnida aytganda, Ashurali Zohiriyning hayoti va faoliyatini o’rganish uning zamondoshlari davridayoq boshlanib, ular ko’proq olimning tilshunoslik hamda lug’atshunoslikka doir qarashlarini tahlil qildilar. Biroq, bu tahlillarning aksariyati tanqidiy xarakterga ega bo’lib, ularda Ashurali Zohiriyning haddan tashqari eski imloni saqlab qolishga doir xatti-harakatlari tanqid qilingan.

Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlarda garchi Ashurali Zohiriy yetuk tilshunos olim sifatida e’tirof etilgan bo’lsa-da, biroq uning qatag’on etilish tarixi yoritilmagan. Buni davriy siyosat tomonidan belgilab qo’yilgan chegaralar bilan izohlash mumkin.

Mustaqillik yillarida qilingan tadqiqotlarda esa ko’proq Ashurali Zohiriyning tilshunos olim sifatidagi faoliyati tahlil etilib, uning XX asr boshlaridagi Turkiston jadidchilik harakati tarixida tutgan o’rni, ijtimoiy-siyosiy faoliyati tarixiy nuqtayi nazaridan maxsus tadqiqot mavzusi sifatida tadqiq etilmadi. Xorijiy tadqiqotlar xususida ham shu fikrni aytish mumkin.

References:

1. M. Cho’qay. Istiqlol jallodlari. – T.: “G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy birlashmasi”. 1992.
2. Z. V.To’g’on. Bugungi Turkiston va yaqin moziysi. – Qohira.: “Matba’atul-e’timod”. 1939.
3. Z.V.To’g’on Hatiralar. – T.: “Turkiye diyanet vakfi yayinleri”. 2019.
4. A. O’qtoy. Turk gazetachilig’i // “Yosh Turkiston” jurnali. 1933-yil oktyabr – №. 47;
5. T. Chig’atoy. Turkistondagi milliy adabiyot va adiblar fojiasi // “Yosh Turkiston” jurnali. 1935-yil iyun – №. 65;

¹² Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley.: “University of California Press”. 1998. – P. 97.

¹³ O’sha manba: – B. 154.

¹⁴ Khalid, Adeeb Making of Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – USA.: “Cornell University Press”. 2015. – P. 264.

¹⁵ O’sha manba: – P. 374.

6. B.Hayit. Mahmudxo'ja Behbudiy // "Milliy Turkiston" jurnali. 1952-yil – № 76;.
7. B.Hayit. Munavvarqori – Turkiston jadidchiligining otasi // "Milliy Turkiston" jurnali. 1952-yil – № 77.
8. Allworth E. The modern uzbeks. From the fourteenth century to the Present. A cultural History. – Stanford:California. 1990. – P. 124.
9. Shu muallif: Jadidlar haqida yashirilhan hikoyalar // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1992-yil 11-sentyabr;
10. Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform. – Oxford.: "University of California Press". 1998.
11. Shu muallif: Adeeb Khalid. Making Uzbekistan. Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – USA.: "Cornell University Press".
12. Sh.Yassaviy. Turkistonning achchiq haqiqatlari. -Istambul.: 1984.
13. M.S.Arslon. Hokandlı Ceditçi Aşurali Zohiri // Türk Kültürü İncelemeleri Dergisi, 51 (Bahar 2024).

INNOVATIVE
ACADEMY